



O'ZBEKISTONDAGI ILK SHAHARLAR

Ashurov Sodiqjon

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Tarix yo'nalishi

1-bosqich 14T-2023 guruh talabasi

Email adres: sodiqjonashurov536@gmail.com

Telefon raqami: +998915137504

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10313990>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-December 2023 yil

Ma'qullandi: 04- December 2023 yil

Nashr qilindi: 09- December 2023 yil

KEY WORDS

Ilk davlatchilik, yodgorliklar, xorazm, baqtriya, dovon davlati, Jarqo'ton yodgorligi, Sopollitepa, madaniyat sohiblari, shaharmonand, ibtidoiy jamoa, yodgorliklar

ABSTRACT

Avvalo ushbu maqolada O'zbekiston hududidagi ilk shaharlarning paydo bo'lishi, ularni topish va izlash ishlarining olib borilganligi va natijalari haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, shu bilan birgalikda hududimizda joylashgan qal'alar va ularning o'z davridagi istiqbollari haqida ham ma'lumotlar keltirilgan.

Har bir davlatning mustaqil bo'lib rivojlanishiga eng avvalo, uning tarixiy bosqichlari, bosib o'tgan qiyinchiliklari asosiy sabab va manba bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birgalikda hozirgi O'zbekistonning ham shu darajagacha yetib kelishiga eng avvalo evolyutsiya va urbanizatsiyaning rivojlanishini misol qilishimiz mumkin. Shunday ekan keling O'zbekistondagi ilk shaharlar qanday paydo bo'lgan va ularning ilk va hozirgi ko'rinishi qanday degan savollarga birgalikda javob topamiz va fikr mulohazalar yuritamiz. O'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab O'zbekistonning janubidagi bronza davriga oid yodgorliklarni keng miqyosda tadqiq etilishi natijasida ushbu hududlarning qadimgi tarixi va madaniyati to'g'risida boy ma'lumotlar olindi. Turli yillarda janubiy O'zbekiston hududlarida ilk rivojlangan va so'nggi bronza davri ilk dehqonchilikning paydo bo'lishi va rivojlanishi, urbanizatsiya jarayonlari hamda ilk davlatchilik masalalari, madaniy va iqtisodiy aloqalar, hunarmandchilikning taraqqiy etishi masalari bo'yicha Askarov, Rtveladze, Abdullayev, Sagdullayev, Shirinov, Rahmonov, Shaydullayev kabi olimlar tadqiqot ishlari olib bordilar.

Ushbu taqiqothilar natijasida bronza davri o'lkamiz janubiy hududlarida bo'lib o'tgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyot masalalari va ayniqsa, ushbu hududlarda ilk shahrlarning paydo bo'lish asoslari va rivojlanish bosqichlari, ilk davlatchilikning paydo bo'lishi jarayonlariga ko'plab aniqliklar kiritildi. Ushbu masalalar bo'yicha juda ko'p yangi ma'lumotlar fanga joriy etildi va etilmoqda.

Amudaryoning o'rta va yuqori oqimi shimoli hamda janubida joylashgan yerlar "Avesto"ning qadimgi qismlarida Bxdi, fors podsholari mixxatlarida Baqtrish, grek-rim tarixchilari

ma'lumotlarida Baqtriya yoki Baktriyona, hind manbalarida Baxlika, milodning boshlariga oid xitoy manbalarida Baxlika, milodning boshlariga oid xitoy manbalarida Daxya yoki To-xo-lo o'lkasi sifatida eslatib o'tiladi. Zamonaviy tarixiy ma'lumotlarga ko'ra Baqtriya yerlari bu Afg'onistonning shimoliy sharqiy qismini, Janubiy Tojikiston va O'zbekistonning janubidagi yerlarni o'z ichiga olgan. Undan tashqari zamonaviy tarixiy adabiyotlarning barchasi hozirgi kunda Surxondaryo viloyadi, Tojikistonning Ko'lob va Qo'rg'on tepa viloyatlarini o'z ichiga olgan yerlarni shimoliy Baqtriya sifatida etirof etadilar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ushbu maqolada O'zbekistondagi ilk davlatlarning paydo bo'lishi va qanday qilib hozirgacha rivojlanishi haqidagi ma'lumotlarni, Qadimgi dunyo tarixi, Azamat Zie ning "O'zbek davlatchiligi tarixi" hamda birinchi prezidentimiz marhum Islom Krimovning "Yuksak manaviyat yengilmas kuch" asarlaridan va shu kabi tarixiy manbalardan ko'proq ma'lumotlar olishga harakat qildik va izlanishlar olib bordik

Tadqiqod metodologiyasi. Bronza davriga kelib esa bu hududlarda boshqa ko'rinishga ega bo'lgan hamda o'ziga xos xo'jalik shaklidagi yangi madaniyatlar shakllana boshlaydi. Ushbu madaniyat sohiblari yashagan manzilgohlardan biri Sopollitepa bo'lib, bu yodgorlik Surxondaryo viloyati Sherobod tumani hududida, Ko'hitangtog'dan oqib tushuvchi kichik daryoning qadimgi irmog'i bo'yida joylashgan. Sopollitepa paydo bo'lgan soy mahalliy aholi orasida Ulombuloqsoy deb ataladi. Sopollitepa O'zbekiston hududlarida hozirgi kunga qadar aniq bo'lgan eng qadimgi o'troq dehqonchilik qishlog'i bo'lib, tadqiqotchilarning fikricha, ushbu madaniyat quyidagi beshta asosiy bosqichga bo'linadi:

1. Sopolli bosqichi-mil.avv. 1700-1500 yy
2. Jarqo'ton bosqichi-mil.avv 1500-1350 yy
3. Ko'zali bosqichi-mil.avv. 1350-1200 yy
4. Molali bosqichi-mil.avv. 1200-1050 yy
5. Bo'ston bosqichi-mil.avv 1050-900 yy

Ushbu bosqichlarning sanalari tadqiqotlar tomonidan mahsus tahlil etilib ilmiy jihatdan asoslangan. Tadqiqotlar tahlilidan shunday xulosa chiqarishimiz mumkinki, Shimoliy Baqtriyaning qadimgi shahrlari uzoq davom etgan tarixiy jarayonlar va turli ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy va tabiiy-geografik omillarning ta'siri natijasida shakllanib kelgan. Sopollitepada tadqiqotlar uzoq yillar olib brogan A. Askarovning fikricha, yodgorlik mustahkam asosda qad ko'targan bo'lib, quyidagi ajralib turuvchi belgilarga ega:

Ikki qismli tuzilish-mustahkam markaziy qism va uning atrofida mustahkamlanmagan manzilgoh, uncha katta bo'lmagan maydon, asosiy qismning aniq rejaviy tuzilishi, sakkizta ko'p xonali turar-joylar qismlarining markazalshuvi va ularning yo'laklar bilan ajralib turishi, bo'lmalari bo'lgan himoya devorlari. Undan tashqari, kulolchilik va metallga ishlov berish hunarmandchiligi dehqonchilikning yetakchi mavqega ega bo'lishi ham sopollitepa uchun xosdir. Tadqiqotlar natijasiga ko'ra Sopollitepa aholisining asosiy mashg'uloti sun'iy sug'orishga asoslangan o'troq dehqonchilikdan iborat edi.

Tahlil va natijalar. Tahliliy izlanishlar natijasida Jarqo'rg'on yodgorligini va yodgorlikdan topilgan moddiy madaniyat ashyolarini Qadimgi Shar shahr-davlatlari bilan taqqoslash natijasida eramizdan avvalgi II mingyillikda ya'ni so'ngi bronza davrida O'zbekiston hududida ilk shahar madaniyati shakllangan. Bu yerdan hukmdorlar saroyi, markazlashgan din mavjudligini isbotlovchi olov ibodatxona va boshqa ilk shahar madaniyatiga xos bo'lgan ashyoviy manbalar topildi. Ular Qadimgi Sharq shaharlari harobalaridan topilgan manbalari

bilan solishtirilishi natijasida Jarqo`ton egallagan maydoni, yodgorlikning ichki tizimi, yuqori rivojlangan hunarmandchiligi va boshqa sifat belgilariga ko`ra u shahr ko`rinishiga ega bo`lgan yodgorlik ekanligini isobtladi. Shu tariqa O`zbekiston hududida millodan avvalgi II mingyillikning ikkinchi yarmiga kelib ijtimoiy sharoit, iqtisodiy rivojlanish va geografik muhitdan kelib chiqib, kichik daryo havzasida, bir yaxlit dehqonchilik vohasida, ilk shahar madaniyatiga asos solingan. Jarqo`ton yodgorligi O`zbekiston hududida birinchi bor shakllangan tom manodagi shahar. Ilk shaharlar va davlatchilikning paydo bo`lishi va taraqqiyoti o`zaro uzviy bog`liq ekanligini areologik manbalar tasdiqlaydi. Yirik davlatlar, yani podsholiklarning shakllanishi bilan shaharlar egallagan siyosiy va iqtisodiy mavqega qarab katta va kichik shaharlar toifalariga ajralib borilgan. Olib borilgan tadqiqotlar tahlilidan shunday xulosa chiqarish mumkinki, mil. avv. II ming yillikning o`rtalariga kelib Jarqo`ton o`sha hududlardagi dehqonchilik bilan shug`ullanuvchi aholi qabilalari uyushmalarining mustahkam istehkomiga aylangan.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagilardan xulosa yasab aytish mumkinki, bronza davri Janubiy O`zbekiston hududlarida yashagan o`troq dehqonchilik jamoalari jamiyat taraqqiyotining yuqori pog`onasida bo`lib, ibtidoiylikning so`nggi bosqichidan sivilizatsiyaga o`tgan. Ushbu sivilizatsiyaning boshlanishi shaharmonand (protogorod) belgilarni o`zida aks ettirgan Sopollitepa bo`lgan bo`lsa, Jarqo`ton aynan yirik shahar belgilarini o`zida mujassamlantirgan markaz edi. Fikrimizcha, aynan Jarqo`tonning o`zi O`zbekiston hududlaridagi ilk shaharlarning yorqin misoli edi.

Serobod vohasidagi shu davrga oid Jarqo`ton majmuiga kiruvchi manzilgohlar guruhini esa shahar-davlat yoki nom davlatlar sirasiga kiritishimiz mumkin. Yoki hech bo`lmaganda, mil. avv. II ming yillikning so`nggi choragida Shimoliy Baqtriya hududlarida yirik va mustahkamlangan markazlarga ega bo`lgan, nom yoki voha ko`rinishidagi davlatlarning boshlanish bosqichida bo`lgan **hududiy-siyosiy birlashmalar** shakllana boshlagan degan g`oyani ilgari surishimiz mumkin. Shunday qilib, Surxon vohasi nafaqat O`zbekiston, balki butun O`rta Osiyo hududlarida ilk urbanistik markazlardan biri hisoblanib, ushbu hududlarda urbanizatsiya jarayonlarining boshlanish sanasi 4000 yildan kam emas deya olsak ham bo`ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati:

1. Baltayev Mansur "O'ZBEKISTON ILK DAVLATLARNING PAYDO BO'LISHI" maqolasidan
2. I.Karimov " Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q" . 1998 -yil
3. Tarix ortga qaytmaydi to'plam. 2004-yil
4. I.Karimov " Yuksak manaviyat yengilmas kuch". 2008-yil
5. Azamat Zie "O'zbek davlatchiligi tarixi" 2000-yil